

DAVLAT-XUSUSIY SHERIKCHILIK MUNOSABATLARINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR JIHATLARI

Toshmanov Xamdamjon Abdumalikovich
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya
akademiyasi tinglovchisi

Annatsiya. Iqtisodiy rivojlanishda mavjud innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyatga. Shuningdek, davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarida rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlarini tadqiq qilish dolzarb xisoblanadi. Hamda xorijiy olimlar va davlatlar tajribasi rivojlanayotgan davlatlar asosiy vositadir.

Kalit so‘zlar: davlat-xususiy sherikchilik, inson kapitali, ta‘lim tizimi, innovatsiya, integratsiya.

Yuqori iqtisodiy o‘shishga erishishda mamlakatda inson kapitali tomonidan yaratilgan qo‘shimcha qiymatlar ulushi yuqori bo‘lishi yangi iqtisodiy nazariyaning asosi hisoblanadi. Bunda ta‘lim, sog‘liqni saqlash va boshqa ijtimoiy sohalar muhim ahamiyatga ega. Mamlakatda ta‘lim tizimi uchun zamonaviy infratuzilmaning mavjud bo‘lishi, shu bilan bir qatorda, mavjud infratuzilma obyektlarida samaradorlikni ta‘minlash va boshqaruvning yangi, innovatsion usullarini qo‘llash zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Dunyoning ko‘plab mamlakatlarida ta‘lim tizimini yetarlicha infratuzilma bilan ta‘minlash, moliyalashtirishning yangi manbalarini izlab topish ta‘lim sohasida boshqaruvning samarali usullaridan foydalanishda davlat-xususiy sherikchilik munosabatlari tobora rivojlanib, yangi mazmun kasb etmoqda. Davlat-xususiy sherikchilik munosabatlari infratuzilma bilan bog‘liq xizmatlarni ko‘rsatishning miqdor jihatdan ko‘payishi va sifat jihatdan yaxshilanib borishi davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi munosabatlar majmuidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022 yil 28 yanvardagi PF–60-son Farmonida ham [1] ta‘lim tizimida davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarini amalga oshirish masalalariga alohida ahamiyat qaratiladi. Farmonning 2-ilovasi bilan tasdiqlangan Davlat dasturining 105-bandiga muvofiq, davlat-xususiy sherikchilik asosida energetika, transport, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xo‘jaligi va boshqa sohalarga qiymati qariyb 14 mlrd dollardan iborat bo‘lgan 154 ta davlat-xususiy sherikchilik loyihalarini amalga oshirish rejalashtirilmogda.

2022–2026 yillar davomida ta‘lim sohasida amalga oshirilishi rejalashtirilgan 6 ta yirik loyihalar bo‘yicha hujjatlar tayyorlash va o‘rganish ishlari olib borilmoqda. Bunda davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarining ta‘lim tizimi uchun asosiy yo‘nalishlari va ustuvorliklarini aniqlab olish, shuningdek, sheriklik munosabatlarida hukumatning ahamiyat qaratishi lozim bo‘lgan masalalarini o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi [1].

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Shuningdek, xorijiy olimlarning DXSh asoslari bo‘yicha fikrlari birqator ijobiy hisoblanadi. Davlat-xususiy sherikchilik munosabatlari tushunchasi ta‘lim tizimiga yaqinda kirib kelgan bo‘lishiga qaramasdan, so‘nggi yillarda ta‘lim tizimida ushbu munosabatlarning ahamiyati borasida tadqiqotlar soni oshib bormoqda. S. Roberson va A. Verger o‘zining “Ta‘lim tizimida davlat-xususiy sherikchilik munosabatlari: yangi ishtirokchilar va globalizatsiya sharoitida boshqaruvning yangi modeli” (“Public private partnerships in education: new actors and modes of governance in a globalizing world”) kitobida ushbu munosabatlarning ta‘lim tizimiga ta‘siri va ahamiyatini keng miqyosda yoritib berib, quyidagi fikrlarni bildirib o‘tgan: “Turli xil sharoitlarda DXSh munosabatlari aholining barcha qatlamlariga ta‘lim berish, ayniqsa, aholining eng zaif qatlamlariga yangi ta‘lim imkoniyatlarini taqdim etishda innovatsion yondashuv sifatida qabul qilinadi. Ko‘plab hukumatlar, xalqaro tashkilotlar va boshqa ta‘lim sohasidagi tashkilotlar xususiy sherik bilan hamkorlik qilish orqali o‘zlarining ta‘lim tizimini yanada samarali, moslashuvchan va maqsadga muvofiq usulda kengaytirishlari mumkin, deb hisoblashadi. Ushbu munosabatlar ko‘p qirrali, zamonaviy ko‘rinishga ega, har qanday holatga tayyor bo‘lib, innovatsion yechimlar sifatida jozibali ko‘rinish kasb etadi, shu bilan birgalikda, loyihalarni amalga oshirishning qiziqarli va ahamiyatli usulidir [2].

Rivojlangan davlatlarda DXSh ning ta‘lim tizimidagi yo‘nalishlari bo‘yicha Amerikada ta‘lim muassasasi mulk huquqi davlat ixtiyorida saqlab qolinadi, lekin mulkni boshqarish xususiy sektorga o‘tkaziladi. Shu bilan birgalikda, ushbu mamlakatda kam ta‘minlangan aholini ta‘limga qamrab olish maqsadida davlatning vaucher va subsidiya dasturlari mavjud [3]. Ushbu amaliyot davlat mulkini tasarruf qilish imkoniyatlarini beradi. Hamda davlatlar uchun tajriba muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, Buyuk Britaniyada davlat-xususiy sherikchilik munosabatlari xususiy-moliyaviy tashabbus nomi bilan atalib, xususiy sektorning asosiy vazifasi infratuzilmani qurish, moliyalashtirish va boshqarishdan iborat bo‘lib, davlat bilan sheriklikda 30 yillik shartnoma asosida amalga oshiriladi. Shuningdek, kapital xarajatlarning 10 foizini tashkil etuvchi shaxslar, jamoat yoki xususiy biznes tashkilotlari, diniy tashkilotlar yoki NNT tomonidan “homiylilik qilinadigan” maktablar mavjud. Bu davlatda biznes va universitetlar tadqiqotlari o‘rtasidagi sheriklikni amalga oshirishda LINK dasturi muhim rol o‘ynaydi. Ushbu dastur 200 dan ortiq universitetlar va kichik, shuningdek, o‘rta biznes tarmog‘ini o‘zida qamrab oladi [4].

Germaniyada davlat va xususiy sektor o‘rtasida sheriklik munosabatlari infratuzilmani loyihalash, qurish, moliyalashtirish va boshqarish borasida 20-25 yil muddat davomida amalga oshiriladi [5]. Shuningdek, xususiy sektor tomonidan texnik xizmat ko‘rsatish, tozalash va kommunal xizmatlar taqdim etiladi [6]. Xususiy sektor infratuzilmani quradi va moliyalashtiradi, loyiha tugagandan keyin egalik huquqi davlatga o‘tkaziladi. Shu bilan birgalikda, Koreyada ta‘lim sifati va ijtimoiy tenglikni ta‘minlash maqsadida davlat subsidiya dasturlari amal qiladi [3]

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Davlat-xususiy sherikchilik amaliyotining xorijiy tajribasida hukumat xususiy sektorning moliyaviy imkoniyatlarini qullab-quvvatlashi lozim, lekin uning tijorat faoliyatida muastqailigini ta’minlash talab qilinadi.

DHShdan samarali foydalanish Mamlakatda davlatning nazorat mexanizmi hamda xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan layoqati va umuman olganda, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik munosabatlarini qanday olib borishga bog‘liq. Bunda hukumat quyidagi masalalarga aniqlik kiritib olishi lozim. Juladan:

- Davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarida davlat xususiy sherigining sohadagi nisbiy xarajatlari va foydali tomonlari, shuningdek, o‘zining munosabatlardagi munosib o‘rniga baho berishi lozim;

- xususiy sektor faoliyati kafolatini ta’minlaydigan aniq, maqsadli va ishonchli kriteriyalarni o‘rnatish;

- ta’lim tizimini moliyalashtirish masalasida davlat sektori va xususiy sektor mablag‘larining integratsiyasida aniq maqsadlilik hamda mas’uliyatlilikni ta’minlash;

- munosabatlarda teng ta’sir ko‘rsatish davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarining tabiati va mavjud bo‘lishining asosiy tamoyiliga aylanishi kerak;

- munosabatlarda shaffoflik, mulk himoyasi va shartnomaviy talablarni ta’minlaydigan huquqiy mexanizmning mavjud bo‘lishi;

- davlat-xususiy sherikchilik munosabatlari yuzasidan qabul qilinadigan qonun hujjatlarining umumiy mohiyati, undagi tushunchalarning aniqligi, shu bilan birgalikda, qonunlar ijrosi yuzasidan mexanizmning mavjud bo‘lishi;

- davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarini o‘rnatish jarayoni korrupsiyadan xoli bo‘lishi lozim. Ushbu munosabatlar tartibga solinar ekan va kamchiliklar bartaraf qilinar ekan tizim o‘z yo‘nalishida barqaror rivojlanadi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Rrezidentining qarori 2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni, 28.01.2022 yildagi RF-60-son

2. LaRocque N. Public-private partnerships in basic education. International Review. Available at: https://olcstage.worldbank.org/sites/default/files/CfBT_LaRocque_PPPs%20in%20Basic%20Education%20An%20International%20Review_0.pdf/.

3. A guidebook on public-private partnership in infrastructure. Economic and social Commission for Asia and Pacific. Bangkok, UNESCAP, 2011, p. 76. Available at: www.unescap.org/

4. Patrinos H.A., Barrera-Osorio F., Guaqueta J. The role and impact of public-private partnerships in education. The International Bank for Reconstruction and Development. The World Bank, 2009.

5. German PPP Schools Study. The Global Infrastructure Hub (GI Hub). Available at: <https://www.gihub.org/quality-infrastructure-database/case-studies/german-ppp-schools-study-2019/>. 14. PPP Schools Frankfurt. Case study. German Federal Ministry of Finance. Available at: https://unece.org/fileadmin/DAM/ceci/ppt_presentations/2011/TOS_PPP3/German_PPP_case_study.pdf/.

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

6. Robertson S.L., Verger A. Public private partnerships in education: New actors and modes of governance in a globalizing world. Available at: <https://www.researchgate.net/publication/292583612/>
7. Самадова Н.Р. Хўжалик юритувчи субъектлар иқтисодий салоҳияти тушунчаси ва унинг назарий асослари. // Бизнес эксперт (илмий-амалий журнал). – Тошкент, - №4. 2021. – 87-91 б. (08.00.00; №4)
8. Самадова Н.Р. Хўжалик юритувчи субъектларда иқтисодий салоҳиятни ифодаловчи кўрсаткичлар таҳлилининг амалий жиҳатлари // Scientific Journal of “International Finance & Accounting” 3/2023.
9. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2023). DIGITAL ECONOMY AND CHANGES IN BUSINESS ANALYSIS. International Journal of Research in Finance and Marketing (IJRFM), 13(12), 47-52. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRFM4Dec2023-Uzb.pdf>
10. Ibragimov Gayratjon Artikovich, Kurbanbaev Jurabek Eruvbayevich, Mukhiddinova Barno Gafurjanovna. (2019). The main differences between IFRS and NSA. International Finance and Accounting, 3(13), 1-12. Retrieved from <https://core.ac.uk/download/pdf/285998049.pdf>
11. Klichev Bakhtiyor Pardayevich. (2022). ISSUES OF PRODUCT PRICING IN THE ANALYSIS OF OPERATIONAL. Пандемия шароитида иқтисодиёт, молия ва бошқарувда рақамли трансформация жараёнлари (IV ФОРУМ «ЭКОНОМИКА В МЕНЯЮЩЕМСЯ МИРЕ» 2022 май КАЗАНЬ-ТАШКЕНТ), Казань-Ташкент. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6641015>
12. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2023). DIGITALIZATION OF THE ECONOMY AND OPERATIONAL SAFETY. International Journal of Research in Economics and Social Sciences(IJRESS), 13 (11), 95-101. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRESS10-Nov2023-Uzb.pdf>
13. Қличев Бахтиёр Пардаевич. (2023). ХЎЖАЛИК ЮРИТУВЧИ СУБЪЕКТЛАРДА ОПЕРАЦИОН ЦИКЛ ТАҲЛИЛИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ МАСАЛАЛАРИ . World Scientific Research Journal, 16(1), 196–203. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2718>
14. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2024). EKSPORT-IMPORT OPERATSIYALAR HISOBI NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI . World Scientific Research Journal, 23(2), 215–222. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3034>
15. Gayratjon Ibragimov. (2024). TIJORAT BANKLARIDA MBMB TIZIMINI JORIY ETISH MASALALARI . World Scientific Research Journal, 23(2), 223–230. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3035>
16. Қличев Бахтиёр Пардаевич. (2023). ОПЕРАЦИОН ФАОЛИЯТ ТАҲЛИЛИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ МАСАЛАЛАРИ . World Scientific Research Journal, 12(2), 263–271. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2557>
17. Пардаевич, Қ. Б. (2023). Хўжалик юритувчи субъектларда операцион фаолиятида ишлаб чиқариш ҳажмини ифодаловчи кўрсаткичлар таҳлили. *Scientific Journal of “International Finance & Accounting*, (2), 2181-1016.
18. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2024). MUQOBIL IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR . World Scientific Research Journal, 23(2), 231–238. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3036>

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

19. Тулаев, М. С., & Кличев, Б. П. (2022). ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА КОРПОРАТИВНЫХ ОБЛИГАЦИИ: ОБЯЗАТЕЛЬСТВО ИЛИ КАПИТАЛ. In Учет, анализ и аудит: их возможности и направления эволюции (pp. 146-154).

20. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2024). BIZNES JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH YO‘NALISHLARI . World Scientific Research Journal, 23(2), 239–246. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3037>

21. Қличев Бахтиёр Пардаевич. (2023). ОПЕРАЦИОН ФАОЛИЯТ НАТИЖАЛАРИНИ ИФОДАЛОВЧИ КЎРСАТКИЧЛАР ТАҲЛИЛИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 182–188. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2876>

